

---

## “Guzar” mahalla fuqarolar yig‘inida yangi temir-beton tayanchlari o‘rnatilmoqda

Rishton tumanida aholi xonadonlari va ishlab chiqarish korxonalarida elektr ta‘minotini yaxshilash, tizimdagi mavjud muammolarni bartaraf etish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

“Guzar” mahalla fuqarolar yig‘inida eskirgan simyog‘ochlar o‘rniga yangi temir-beton tayanchlari o‘rnatilmoqda.

Mazkur ishlar natijasida hududdagi o‘nlab aholi xonadonlarida elektr ta‘minoti yaxshilanadi.

Ayni vaqtda tuman elektr tarmoqlari korxonasi mutaxassislari tomonidan elektr uzatish havo tarmog‘ida montaj ishlari olib borilmoqda.

2023-03-04 14:08:49